



## PROBLEMS AND SOLUTIONS IN CRIMINAL PROSECUTION FOR EVADING MATERIAL SUPPORT FOR MINORS OR DISABLED PERSONS

**Laziz Mamatkulov**

*Student*

*Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [mamatkulovlaziz77@gmail.com](mailto:mamatkulovlaziz77@gmail.com)*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** punishment, debtor, needy, evasion, evasion, material support, minor, material support, disabled, alimony, code, intentional, responsibility, family, administrative, criminal.

**Abstract:** In this article, the author explained the problems associated with bringing minors or disabled persons to criminal responsibility for evading material security, gaps in legislation and their elimination.

**Received:** 01.02.25

**Accepted:** 03.02.25

**Published:** 05.02.25

---

## VOYAGA YETMAGAN YOKI MEHNATGA LAYOQATSIZ SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKKA TORTISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

**Laziz Mamatkulov**

*tinglovchi*

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [mamatkulovlaziz77@gmail.com](mailto:mamatkulovlaziz77@gmail.com)*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** jazo, qarzdor, muhtoj, bosh tortish, bo'yin tovlash, moddiy ta'minlash, voyaga yetmagan, moddiy ta'minlash, mehnatga layoqatsiz, aliment, kodeks, qasddan, javobgarlik, oila, ma'muriy, jinoiy.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishdagi muammolar, qonunchilikdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish masalasiga oydinlik kiritgan.

**ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИ ПРИВЛЕЧЕНИИ К УГОЛОВНОЙ  
ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА УКЛОНЕНИЕ ОТ МАТЕРИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ИЛИ НЕТРУДОСПОСОБНЫХ ЛИЦ**

*Лазиз Маматкулов*

*Слушатель*

*Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [mamatkulovlaziz77@gmail.com](mailto:mamatkulovlaziz77@gmail.com)*

---

**О СТАТЬЕ**

---

<p><b>Ключевые слова:</b> наказание, должник, нуждающийся, уклонение, уклонение, материальное обеспечение, несовершеннолетний, материальное обеспечение, нетрудоспособный, алименты, кодекс, умышленная ответственность, семья, административное, уголовное.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В этой статье автор разъяснил проблемы, связанные с привлечением несовершеннолетних или нетрудоспособных к уголовной ответственности за уклонение от материального обеспечения, пробелы в законодательстве и их устранение.</p>
--	--

---

Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Uning mustahkamligi va farovonligi mamlakat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oila munosabatlarini tartibga solishda, ayniqsa, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning moddiy ta'minotini ta'minlashda qonunchilik muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida bu borada mustahkam huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ota-onalarning o‘z farzandlariga, shuningdek, voyaga yetgan farzandlarning mehnatga layoqatsiz ota-onalariga nisbatan aliment majburiyatlari belgilangan.

Shunga qaramay, amaliyotda aliment to‘lovlaridan bo‘yin tovlash holatlari uchrab turibdiki, bu voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning huquqlarini poymol etishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 122-moddasida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo‘yin tovlash hamda 123-moddasida ota-onani moddiy ta'minlashdan bo‘yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Qonunchilikdagi ushbu normalar aliment to‘lashdan bo‘yin tovlashchilarga nisbatan ta'sirchan choralarni qo‘llash imkonini berdi.

Biroq, amaliyotda ushbu moddalarni qo‘llashda bir qator muammolar mavjud.

Ushbu muammolarga to‘xtaladigan bo‘lsak, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslarning noaniqligi, Jinoyat kodeksining 122 va 123-moddalarida jinoiy javobgarlikka tortish uchun “ilgari ma'muriy jazo qo‘llanilganidan keyin” bo‘yin tovlash davom ettirilsa asos bo‘lishi belgilangan.

Biroq, “jazo qo‘llanilganidan keyin” so‘zi tushunchani biroz mavhumlashtiradi.

Ya'ni, ma'muriy jazo qo‘llanilgandan so‘ng qancha vaqt ichida sodir etilgan bo‘yin tovlash jinoyat deb topilishi aniq emas.

Professor M. Usmonaliyevning fikricha, bu o'rinda "surunkali" tushunchasidan kelib chiqish lozim. Ya'ni, ma'muriy jazodan keyin ham aliment to'lovchi ma'lum vaqt davomida (masalan, 2-3 oy) qasddan bo'yin tovlashni davom ettirsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak. Biroq, bunday yondashuv ham aniq muddatni belgilamagani sababli muammolidir.

Shuningdek, "Moddiy yordamga muhtojlik" mezonining mavhumligi mavjud ham muammolardan biri hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 123-moddasida "moddiy yordamga muhtoj" ota - onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan bo'lsada, "moddiy yordamga muhtojlik" tushunchasining aniq mezonlari qonunda belgilanmagan.

Bu esa huquqni qo'llovchi organlar tomonidan ushbu normani turlicha talqin qilishga olib kelishi mumkin.

Aksariyat hollarda sudlar pensiya yoshidagi ota - onalarni moddiy yordamga muhtoj deb topadi, lekin ularning moddiy ahvoli, boshqa daromad manbalari har doim ham yetarlicha o'rganilmaydi.

Shuningdek, amaliyotda shunday holatlar ham uchraydiki, aliment to'lovchi sud qarori yoki notarial tasdiqlangan kelishuv asosida emas, balki ixtiyoriy ravishda ma'lum miqdorda moddiy yordam berib turadi. Bunday holatlarda moddiy yordamning ko'rsatilganligi fakti, uning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmaydi.

Natijada, garchi ma'lum miqdorda moddiy yordam ko'rsatilgan bo'lsa-da, rasmiy kelishuv yo'qligi sababli shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bu borada, professor M.H.Rustambayev moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy jihatdan ta'minlash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs o'zi mehnatga layoqatsiz bo'lsa yoki unga yuklangan majburiyatni boshqa uzrli sabablarga ko'ra, masalan, kasalligi tufayli bajarmayotgan bo'lsa, JKning 122-moddasi bo'yicha javobgarlik istisno qilinadi, deb qayd etgan.

M.H.Rustambayevning fikri mantiqan to'g'ri bo'lsa-da, qonuniy yechimi noto'g'ri, deb hisoblaymiz. Ushbu keltirilgan misoldagi muammoli vaziyatning yechimi sifatida manfaatdor shaxslarning murojaati orqali tegishli sud hujjatini o'zgartirish zarur.

Chunki, Oila kodeksida 141-moddasiga ko'ra, belgilangan qoidaga ko'ra, sud hujjatida belgilangan miqdordagi alimentni to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishga faqat sud tartibida yo'l qo'yiladi voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lanadigan hollar bundan mustasno.

Shuningdek, ushbu masala ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida inobatga olinganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Rossiya Federasiyasi Jinoyat kodeksining 157-moddasida bunday to'lovlarni "uzrsiz sabablarga ko'ra to'lamaslik" uchun javobgarlik

belgilangan. Ammo bunday tahrirdagi normada ham qanday holatlar uzrsiz sabab hisoblanadi degan muhim savol yuzaga keladi.

Ushbu moddaga ko'ra, sud qarori bilan aliment to'lash majburiyati yuklatilgan shaxs tomonidan ushbu majburiyatni uzrsiz sabablarsiz bir necha marta buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. "Bir necha marta" tushunchasi ikki yoki undan ortiq martani anglatadi.

Rossiya tajribasidan farqli o'laroq, O'zbekistonda jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi uchun avval ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lishi talab etiladi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139-moddasida aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaga ko'ra, aliment to'lash majburiyati yuklatilgan shaxs tomonidan uch oydan ortiq muddat davomida aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Qozog'iston tajribasidan farqli o'laroq, O'zbekistonda jinoiy javobgarlik kelib chiqishi uchun oldin ma'muriy tartibda jazo qo'llanilgan bo'lishi kerak va ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyingi muddat aniq belgilanmagan.

Shu kabi, Germaniyada aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik Germaniya Jinoyat Kodeksining 170-moddasida belgilangan. Ushbu moddaga ko'ra, qonun bo'yicha moddiy ta'minlash majburiyatini qasddan bajarmaslik va natijada ta'minot oluvchi shaxsning hayotiy ehtiyojlarini qondirish xavf ostida qolishi yoki uchinchi shaxslarning (masalan, ijtimoiy yordam xizmatlarining) yordamisiz qondirilmasligi jinoyat hisoblanadi. Jazo turi sifatida uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima belgilangan.

Bundan tashqari, aliment to'lashdan bo'yin tovlashning asosiy sabablari quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Birinchidan, qarzdorning ishsizligi yoki norasmiy ishlashi. Bunda rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslardan aliment undirish qiyin kechadi;

Ikkinchidan, qarzdorning o'z daromadlarini yashirishi. Ayrim shaxslar aliment miqdorini kamaytirish maqsadida o'z daromadlarini yashirishga harakat qiladilar;

Uchinchidan, aksariyat hollarda qarzdorning boshqa oilasi bo'lib, qayta turmush qurgan shaxslar ko'pincha oldingi oilasiga aliment to'lashdan bo'yin tovlaydilar.

To'rtinchidan, qarzdorning moddiy qiyinchiliklari qarzdorning moddiy ahvoli aliment to'lashga imkon bermaydi;

Beshinchidan, aliment miqdori qarzdorning to'lov qobiliyatiga mos kelmasligi mumkin.

Oltinchidan, aliment undiruvchi va qarzdor o'rtasidagi nizoli munosabatlar ya'ni, shaxsiy adovat tufayli qarzdor aliment to'lashdan bosh tortishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni bartaraf etish va voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning huquqlarini samarali himoya qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Qonunchilikni takomillashtirishda:

– O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasi (Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash) va 123-moddasiga (Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash) aniqliklar kiritish, "bo'yin tovlash" tushunchasiga aniq ta'rif berish va jazo choralari kuchaytirish;

– Qarzdorning mol-mulkini xatlash va sotish tartibini soddalashtirish;

– Aliment to'lovlarini qarzdorning bank plastik kartalaridan avtomatik tarzda yechib olish tizimini joriy etish;

– Surishtiruv va tergov organlari xodimlarining aliment to'lashdan bo'yin tovlash holatlari bo'yicha ish yuritish bo'yicha malakasini oshirish;

– Aliment to'lashdan bo'yin tovllovchi shaxslarning yagona elektron bazasini yaratish va undan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning foydalanishini ta'minlash.

Sud qarorlari ijrosini ta'minlashda:

– Majburiy ijro byurosi xodimlari sonini ko'paytirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

– Aliment to'lashdan bo'yin tovllovchi shaxslarning mol - mulkini tezkor aniqlash va xatlash bo'yicha byuroning vakolatlarini kengaytirish.

Jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda:

– Mahalla fuqarolar yig'inlari, xotin-qizlar qo'mitalari va boshqa jamoat tashkilotlarining aliment to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olishdagi rolini oshirish;

Aholining huquqiy madaniyatini oshirishda:

– Ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i orqali aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

– Maktab va oliy ta'lim muassasalarida oila huquqi bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish;

– Bepul yuridik maslahat xizmatlarini kengaytirish;

Aliment to'lashdan bo'yin tovlashning sabablarini bartaraf etishda:

– Qarzdorlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish.

– Aliment undiruvchi va qarzdor o'rtasidagi nizoli munosabatlarni hal qilishda mediatsiya xizmatlaridan foydalanish.

Yuqorida qayd etilgan muammo va taklif yuzasidan xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash ijtimoiy adolat tamoyillariga zid bo'lib, jamiyatda axloqiy muhitning buzilishiga olib keladi.

Bu muammoni bartaraf etish uchun kompleks chora - tadbirlarni amalga oshirish, xususan, qonunchilikni takomillashtirish, surishtiruv, tergov organlari va sud qarorlari ijrosi tizimi faoliyatini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish lozim.

#### IQTIBOSLAR / ЧОҚКИ / REFERENCES

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2024 y., 03/24/1004/0948-son <https://lex.uz/docs/111453>
2. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: TDYuI, 2010. – B. 158
3. Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 3 tomlik. Maxsus qism. T.2.– Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. – B. 143.
4. M.Najimov. Oilaga va yoshlarga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari. Maqola. Eurasian journal of academic research. p.161.
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024 й., 03/24/905/0106-son. <https://lex.uz/docs/104720>
6. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13 июня 1996 года № 63-ФЗ. // [https://www.online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30397073&pos=366;-60#pos=366;-60](https://www.online.zakon.kz/Document/?doc_id=30397073&pos=366;-60#pos=366;-60)
7. Уголовный кодекс Республики Казахстан. Статья 139. Неисполнение обязанностей по уплате средств на содержание детей. [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252-&pos=458;-54#pos=458;-54](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252-&pos=458;-54#pos=458;-54)
8. Strafgesetzbuch (StGB) § 170 Verletzung der Unterhaltspflicht. [https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/\\_170.html](https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/_170.html)